

**JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATINING
XUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING
RIVOJLANISH TARIXI****Mamadaminov Shamsiddin Faxritdinovich***O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistraturasi tinglovchisi, ma'юp*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatining xuquqiy asoslari va ularning rivojlanish tarixi yoritilgan. Shuningdek, bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari davrlarga bo'lingan holda ilmiy tahlil qilingan fikr va mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *davr, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, xuquqiy tartibga solish, davlat organi, qonunchilik.*

Аннотация. *В данной статье описаны правовые основы обеспечения общественного порядка и охранной деятельности и история их развития. Также результаты проведенных в этой связи исследований разделены по периодам, даны научно проанализированные мнения и комментарии.*

Ключевые слова. *Эпоха, общественный порядок, общественная безопасность, правовое регулирование, государственный орган, законодательство.*

Abstract. *This article describes the legal basic of public order and security activities and the history of their development. Also, the results of research conducted in this regard are divided into periods, scientifically analyzed, opinions and comments are given.*

Keywords: *period, public order, public safety, legal regulation, state body, legislation.*

Qadim zamonlardan buyon insoniyat shaxs (inson) va davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarning maqbul shakllarini, ularning manfaatlarini uyg'un kombinatsiyasining shakllantirishga intilib kelmoqda. Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi natijasida bunday nisbat haqida shunday ideal g'oya yuzaga keldiki, unga ko'ra inson manfaatlari birinchi o'rinda turishi kerak, xalq farovonligi esa davlat uchun eng katta manfaat bo'lishi kerak. Biroq, hayot haqiqatlari "ideal" variantni va "shaxs – bu davlat" kabi yuzaga kelgan maqbul munosabatlar haqidagi tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirgan holda individualistik konsepsiyadan chetlashib inson huquqlarining sotsializatsiyasining o'sishiga qarab o'zgaradi. Bu dualistik formula natijasida uchinchi tomon – jamiyat paydo bo'ldi.

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashga doir qonunchilik hujjatlari tizimi ham o'ziga xos tadrijiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Xususan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashga doir qonunchilik hujjatlari tizimining rivojlanish va shakllanishini shartli quyidagi davrlarga bo'lsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi davr – ushbu davrda qadimgi ilk jamoat xavfsizligiga oid norma va qoidalarning shakllanish bosqichlarini o‘zida mujassam etadi. Ushbu davrda jamoat tartibi, jinoyat va xuquqbuzarliklarni oldini olish, davlatda fuqarolarning xavfsizligini muxofaza qilishga oid eng muxim qoidalarni qadimgi yunon va rim mutafakkirlarining fikr-muloxazalari va qarashlarida uchratishimiz mumkin bo‘ladi. Xususan, qadimgi yunon olimi Platon quyidagilarni ta’kidlaydi: “jamiyat a’zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo‘ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir. Qayerdagi qonunlar hokim ustidan hukmron bo‘lsa, hokimlar esa qonunga qul bo‘lsa o‘sha davlat gullab yashnaydi. Agar davlat qonunlar ustidan yaroqsiz hokimiyatni o‘rnatib qo‘yadigan bo‘lsa, u holda qonun hech qanday foyda bermaydi, aksincha, davlat uchun juda katta zarar keltiradi”¹.

Fikrimizcha, yuqoridagi fikrlarda Platon qonun oldida jamiyatda mavjud barcha ijtimoiy qatlamlardagi insonlarning tengligi va itoatkorligi davlat rivojining kafolati, aksincha foydasiz hamda amaliyotga tatbiq etilmagan qonunlarning mavjudligi davlat hokimiyatining inqirozi sifatida kafolatlangan.

Miloddan avvalgi IV asrda yashab ijod qilgan Aristotel (Arastu)ning fikricha “huquqbuzarliklarning oldini olish, avvalo, buzuvchi va aqlga zid bo‘lgan, buzilgan axloq, urf va odatlarga qarshi kurashsin”².

Qadimgi xitoylik olim Men-Szi (mil.av 372-289)ning quyidagi fikrini ham alohida ta’kidlash lozim “fuqarolarni kuch bilan bo‘ysunishga majbur etish mumkin, ammo qalblarini bo‘ysundirib bo‘lmaydi. Ezgulik va oliyjanoblik vositasida fuqarolarni bo‘ysundirish esa qalblarda quvonch tuyg‘ularini uyg‘otadi va odamlar haqiqiy itoatgo‘ylikni namoyish etadilar”³.

Ikkinchi davr – ushbu davr o‘rta asrlarda mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan davrlarda jamoat tartibini saqlashga oid norma va qoidalarning yuzaga kelish bosqichi hamda ushbu vazifalarni bajaradigan bo‘linmalarning shakllanishini o‘z ichiga oladi.

O‘rta asrlarda turon zaminida tashkil topgan ilk davlatlar Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So‘g‘diyona davlatlari aholisi o‘ziga xos harbiy mahoratga ega bo‘lgan. Jumladan, Turonning qadimiy aholisi sak va massaget qabilalari ham harbiy jihatdan qudratli qavm hisoblanib, mintaqa hududida mustaqil erkin davlat tuza olganlar. Harbiy kuch qudrat borasida ham o‘zlarining salohiyatiga ega davlatlar hisoblangan.

Vatanimiz xududida o‘rta asrlarda ilk davlat birlashmalari vujudga kelishi bilan ularning chegaralarini tashqi dushmanlardan himoyalash, aholining tinchligini ta’minlash, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda tartib o‘rnatish, shahar-qal’alarni qo‘riqlash zaruriyati ham tug‘ilgan, bu esa o‘z navbatida muayyan aniq vazifalarga ega bo‘lgan tartib o‘rnatuvchi tuzilmalarning vujudga kelishiga turtki bo‘lgan⁴.

Jumladan, milloddan avvalgi I mingyillikda O‘rta Osiyoda keng tarqalgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da davlatchilik, siyosiy-huquqiy g‘oyalar, odamlar o‘rtasidagi mulkiy, oila va nikoh munosabatlari, mulklarni qo‘riqlash,

aholi orasida jamoat tartibini saqlashni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalarida O'rta Osiyo hududida keng tarqalgan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" 21 kitobdan iborat bo'lgan. Hatto Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishlari chog'ida "Avesto" kitobini ahomoniylar davrida ko'chirilgan nusxalarini aniqlaganligi, muqaddas kitobning siyosat va harbiy sohaga oid qismini yunon tiliga tarjima qilinganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Demak, bundan deyarli uch ming yil muqaddam ham Turon hududida bugungi kundagi kabi aholi orasida jamoat tartibini saqlash va mol-mulkini qo'riqlash bo'yicha ma'lum darajada xuquqiy normalar mavjud bo'lgan.

"Avesto"da jinoyat uchun jazoning ma'lum tizimi belgilanganligi keltirilgan va takroriy jinoyatlar haqida ham to'xtalib, ular uchun yanada og'irroq jazo belgilanadi. Shuningdek, sud masalalariga e'tibor berilib, odil sudlov uchun maxsus mo'ljallangan shaxslar haqida ma'lumot beriladi⁵.

Xususan, tarixiy manbalarda Abu Nasr Farobiy, Abulqosim Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa ko'pgina mutafakkirlarning asarlarida jamiyatda o'rnatilgan tartib qoidalari va xavfsizlik bilan bog'liq masalalarga qaratilgan yondashuvlar o'z ifodasini topgan.

Buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temur ham mamlakatda jamiyat tinchligi, fuqarolarning xavfsizligi, erkinligi va farovon hayoti bevosita davlatda o'rnatilgan qonunchilik tizimiga bog'liqligi yuzasidan quyidagi fikrlarni ta'kidlaganlar, "... davlat agar din-u oyin asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi"⁶.

Binobarin, "Temur tuzuklari"da Amir Temurning mamlakatdagi tartib-osoyshtalikni saqlash borasidagi tadbirlari haqida shunday deyiladi: "Amr etdimki, o'g'ri va qaroqchilarni "Yaso" asosida jazolasinlar; fasadchi, buzuqchi, nafi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipohu raiyatga soqchilik qilsin va kimning biron narsasi o'g'irlansa, buning ma'suliyati uning zimmasida bo'lsin. Va yana buyurdimki, yo'l ustida kuzatuvchilar, zobitlar tayinlansinlarki, yo'llarni yo'riqlab, yo'lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar"⁷.

Shuni ta'kidlash joizki, Amir Temur mamlakat hududida tartib-osoyshtalikni fuqarolar, savdogarlar, musofir va yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlashdagi amalga oshirilgan ishlar va joriy qilingan xizmatlar o'zining samaradorligi bilan mamlakatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan.

Uchinchi davr – Sho'rolar va Sovet Ittifoqi davrida jamoat tartibi va jamoat xavfsizligining ta'minlanishiga oid qonunchilik hujjatlarining rivojlanishi bosqichi.

XX asrning boshlaridan boshlab jamoat tartibini saqlash, aholi osoyishtaligi va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, jinoyatchilikni oldini olish masalalari asosiy mas'ul organ – Ichki qo'shinlar tashkil etilguniga qadar turli organlari zimmasida bo'lgan.

Mazkur davrda O'zbekiston hududidagi harbiy masalalar dastlab Turkiston harbiy okrugi (1867-1920 yy.), so'ngra Turkiston fronti (1919-1926 yy.) tomonidan amalga oshirilgan. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etilganidan keyin harbiy ishlar ittifoq respublikalari tizimidagi islohotlar va boshqaruv siyosati asosida olib borilgan.

1917 yil 26 oktabrda jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlashni qo'llab – quvvatlash maqsadida Ichki ishlar xalq komissarligi tashkil etildi hamda barcha respublikalarda o'z boshqaruv bo'limlariga ega bo'ldi.

Ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida Ichki ishlar xalq komissari tomonidan 1925 yil 1 dekabrda “O'zbekiston SSRning Sovet Ichki militsiyasi haqida Nizomi” qabul qilindi.

Nizomga ko'ra militsiyaga jamoat xavfsizligi bilan bog'liq quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

- inqilobiy tartibni himoya qilish;
- fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlash;
- qamoqxonalarni qo'riqlash;
- jinoyatga qarshi kurashish.

1950-1960 yillarda tashkil etilgan bo'linmalar shaharlarda konvoy xizmati, sud majlislariga maxkumlarni kuzatib borish, maxkumlarni viloyat sudlari, Toshkent va Samarqand viloyatlari harbiy tribunallariga olib borish, sud majlisi vaqtida mahkumlari qo'riqlash bo'yicha operativ xizmat vazifalarini bajarish bilan birga Toshkent va Samarqand shaharlari, shuningdek boshqa viloyatlar markazlarida ham patrullik xizmatini o'tagan holda jamoat tartibini saqlash ishlariga ham faol jalb etilgan.

1968 yilga kelib O'zbekiston SSR Oliy kengashi prezidiumi qaroriga asosan O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi etib qayta nomlangan⁸. O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi XX asrning ikkinchi yarmida jamoat tartibini saqlash ishlarida juda uzoq yo'lni bosib o'tgan va o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda jonbozlik ko'rsatgan.

XX asrning o'rtalariga kelib yuridik fanlar sohasida aynan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilib, ilmiy va ommabop asarlar yaratilgan. Xususan, T.U.Umarov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda sovet davridagi jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibiga qarshi xatti-harakatlar, jinoyatlar kabi tushunchalar, ularning obykti va predmeti, bezorilik va uning jinoiy xususiyatlari, turlari va xarakterlanuvchi jihatlarining tahliliga ham aloxida e'tibor qaratib o'tilgan⁹.

XX asrning 80 yillaridan keyingi davrda jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashga muttasil e'tibor qaratish, jamiyat o'z rivojlanishida yuksala borgan sari barcha fuqarolarning qonunlarga rioya qilishi, yuksak ijtimoiy intizom, aholi orasida o'zaro hurmat, jamiyatga xilof ishlarning har qanday ko'rinishlariga muhosasizlik bilan yondashuv avj olgan bo'lib, bu boradagi ayrim masalalar M.Sulaymonov va Y.Karaketovlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo'ladi¹⁰.

Ta'kidlash joizki, sovet davrida tuzilgan va faoliyati yo'lga qo'yilgan ko'ngilli xalq drujinalari jamiyatda tartib – osoyishtalikni barqarorlashtirishda ham o'z xissasini qo'shgan bo'lib, bunday tizim o'sha davrda o'ziga xos ijtimoiy – siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan.

To'rtinchi davr – O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan bugungi kunga qadar mamlakatda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir qonunchilik hujjatlarining rivojlanish bosqichini o'z ichiga oladi. Ushbu qisqa vaqt mobaynida O'zbekistonda jamoat tartibini saqlashga va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini poymol etilishini oldini olishga qaratilgan zarur normativ-huquqiy baza yaratildi. Jumladan, 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston "Mustaqillik deklaratsiya"sining qabul qilinishi o'z hududida va tashqi munosabatlarda tanho hokimligi, davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqliligini belgilab berdi.

Shuni ta'kidlash joizki, 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonuni¹¹ning qabul qilinishi dunyo hamjamiyatida yangi mustaqil suveren davlat tashkil topganligini anglatib, uning oldiga milliy qonunchilik bazasini shakllantirib, mamlakatda eng avvalo xavfsizlikni ta'minlash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni taqozo etardi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligini tashkil etish, Milliy gvardiya va muqobil harbiy xizmatni tuzish huquqi belgilangan bo'lib, ushbu norma bevosita O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tuzilishiga va shakllanishiga dastlabki huquqiy asoslarini belgilab berdi¹².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 10 yanvardagi "SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari va o'quv yurtlari to'g'risida"gi PF-318-son Farmoni¹³ asosida SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarining O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan qo'shilmalari, alohida qismlari va bo'linmalari O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasiga olinganligi alohida ahamiyat kasb etdi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan 1992 yil 23 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to'g'risida"gi 29-son Qarori¹⁴ga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi

bo‘linmasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiya bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarning konstitutsion huquqlarini va erkinliklarini hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida tuzildi. Tashkil etilgan Milliy gvardiya bo‘linmasi davlat konstitutsiyasi loyihasi ishlab chiqib qabul qilungunga qadar bo‘lgan davr mobaynida, o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq konstitutsiyaviy qonun maqomiga ega bo‘lgan “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni¹⁵ga muvofiq amalga oshirildi.

Yurtimizda 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadryat hisoblanadi”¹⁶ deb belgilanishi bir tomondan fuqarolar uchun ularning huquqlarini belgilab bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlatning majburiyatini ham belgilab berdi. Holbuki, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar davrida o‘tkazilgan har qanday tadbir, yig‘ilish, miting va namoyishlar hamda ularni o‘tkazish davrida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash qonun va boshqa belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar asosida bo‘lishi shartdir. Mazkur vaziyatlar tadbirlar o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlashning ishchan mexanizmlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Xavfsizlikni ta‘minlash jarayoni inson, jamiyat va davlatlar faoliyatini harakatga keltirishida muhim omil hisoblanadi, jumladan ijtimoiy munosabatlarda ham xavfsizlik masalalari, ularni ta‘minlovchi samarali mexanizmlar, vosita va institutlarni shakllantirish har bir davlat faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etib, jamiyat va davlat mavjudligi va barqaror rivojlanishining muhim sharti sifatida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini tashkillashtirishda xalq bilan hamnafas bo‘ladigan huquqni muxofaza qiluvchi organning yuzaga kelish ehtiyoji shakllantirildi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat qanchalik rivojlanib, madaniylashib borsa, barcha fuqarolarning jamoat tartibi va xavfsizligi talablariga rioya etishlari, har qanday g‘ayriijtimoiy hodisalarga nisbatan murosasizligi shunchalik katta ahamiyat kasb etadi. Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash hamda ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga qat‘iy rioya etish zarurati xalq, jamiyat va davlat manfaatlarini bilan bog‘liq bo‘ladi. Zero, ular xalqning hoxish-irodasini aks ettiradi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va takomillashuviga faol ko‘maklashadi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qiladi.

1. Ismailov I, Abdurasulov Q, Fazilov I “Kriminologiya”. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2015. – B 27-28.
2. Ismailov I., Abdurasulov Q., Fazilov I. “Kriminologiya”. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2015.
3. Mumtoz faylasuflar xikmati (elektron manba).
4. Sodiqov X, Yo‘ldoshev B va boshqalar. “O‘zbekiston Qurolli Kuchlari” (O‘tmishda va hozir) – B 4-6.
5. Ziyayeva D.X. “O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan”. – T.: Sharq – 2012 B 67.
6. “Temur tuzuklari”. – Yoshlar nashriyoti uyi. 2019 – B 60.
7. “Temur tuzuklari”. – Yoshlar nashriyoti uyi. 2019 – B 10.
8. “O‘zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligining O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi etib qayta nomlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston SSR Oliy kengashining preziumdagi qarori. 1968 yil 4 dekabr. Toshkent shahri.
9. Umarov T.U. “Jamoat tartibi va qonunchilik”. – T.: O‘zbekiston 1984 B 14.
10. Sulaymonov M.S.Karakterov Y.M. Qonun – Jamoat tartibi posboni. – T.: O‘zbekiston. 1983. B 32.
11. Закон Республики Узбекистан “Об основах государственной независимости республики Узбекистан” № ЗРУ-336-ХИИ от 31.08.1991 г. (ведомости Верховного Совета Республика Узбекистан, 1991 г., № 11, ст.246)
12. Закон Республики Узбекистан “Об основах государственной независимости республики Узбекистан” № ЗРУ-336-ХИИ от 31.08.1991 г. (ведомости Верховного Совета Республика Узбекистан, 1991 г., № 11).
13. 1992 yil 10 yanvardagi “SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlar va o‘quv yurtlari to‘g‘risida”gi PF-318-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. lex.uz (murojaat sanasi: 17.11.2021).
14. 1992 yil 23 yanvar kunidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Vazirlar MAxkamasining “O‘zbekiston respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 29-son Qarori. lex.uz (murojaat sanasi: 17.11.2021).
15. 1991 yil 30 sentabrdagi 358-XII-son ““O‘zbekiston respublikasining davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga Konstitutsiyaviy maqom berish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991. 11-son, 268-modda).

16. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O‘zbekiston 2023
13-modda.